



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi .....	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi .....	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik .....	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations .....	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi .....	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida .....	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish .....	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan .....	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari .....	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari .....	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<a href="#">Xidirov Faxriddin Fozilovich</a>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<a href="#">Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</a>	

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV O'YIN TEKNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Axtamova Mohinur O'tkir qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha talim) magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kreativ fikrlashning mazmun-mohiyati, uning bolalar intellektual va shaxsiy rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Interaktiv o'yinlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, bolalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi, ijodiy yondashuvlarni shakllantirishdagi roli ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan asoslangan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan samarali interaktiv metod va o'yin texnologiyalari tavsiflangan.

**Kalit so'zlar:** kreativ fikrlash, interaktiv o'yin, maktabgacha ta'lim, ijodkorlik, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv, ta'lim jarayoni, bolalar rivojlanishi.

**Abstract:** This article examines the pedagogical potential of interactive game technologies in developing creative thinking among preschool children. The essence of creative thinking and its significance in the intellectual and personal development of children are discussed. The role of interactive games in fostering independent thinking, problem-solving skills, and creative approaches is scientifically substantiated. The study also describes effective interactive methods and game technologies applied in preschool educational practice.

**Key words:** creative thinking, interactive games, preschool education, creativity, pedagogical technology, innovative approach, educational process, child development.

**Аннотация:** В данной статье анализируются педагогические возможности интерактивных игровых технологий в развитии креативного мышления детей дошкольного возраста. Рассматриваются сущность креативного мышления и его значение в интеллектуальном и личностном развитии ребенка. Обоснована роль интерактивных игр в формировании самостоятельного мышления, развитии способности решать проблемные ситуации и применять творческий подход. Также представлены эффективные интерактивные методы и игровые технологии, используемые в практике дошкольного образования.

**Ключевые слова:** креативное мышление, интерактивная игра, дошкольное образование, творчество, педагогическая технология, инновационный подход, образовательный процесс, развитие детей.

## KIRISH

Maktabgacha yosh davri inson shaxsining har tomonlama rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning bilish jarayonlari, dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi hamda ijodiy qobiliyatlari shakllanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki kreativ fikrlash bolaga yangi g'oyalarni ilgari surish, muammolarga noodatiy yechim topish, mavjud bilimlardan samarali foydalanish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri interaktiv o'yin texnologiyalaridir. Interaktiv o'yinlar bolalarni faol ta'lim jarayoniga jalb etadi, ularning qiziqishlarini oshiradi va ijodiy faoliyatga undaydi. Shu sababli interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.



So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodni zamonaviy bilim va kompetensiyalar asosida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, bolalarning intellektual salohiyati, ijodiy va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki maktabgacha yosh davrida shakllangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bolaning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta'lim sohasidagi islohotlarda yoshlarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va innovatsion tafakkurini rivojlantirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda bolalarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish vazifalari belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida bolalarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta'minlash, ularning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish hamda qo'llab-quvvatlash maktabgacha ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qayd etilgan. Mazkur huquqiy hujjatlarda bolalarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va kreativligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish zarurligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta'limning davlat standarti hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida bolalarning kompetensiyaviy rivojlanishini ta'minlash, ularni ijodiy faoliyatga jalb etish va ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim pedagogik talab sifatida belgilangan. Ushbu dasturda bolaning kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy-emotsional rivojlanishi bilan bir qatorda kreativ kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat turlari ham nazarda tutilgan.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda jamiyat innovatsion fikrlaydigan, muammolarga ijodiy yondasha oladigan va yangi g'oyalarni ilgari surishga qodir shaxslarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish, ularda mustaqil va erkin tafakkurni shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda interaktiv o'yin texnologiyalari ta'limning samarali vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki interaktiv o'yinlar bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol muloqotga jalb qiladi, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda kreativ tafakkurning muhim komponentlari bo'lgan tasavvur, fantaziya va divergent fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kreativ fikrlash zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida shaxsning yangi g'oyalarni yaratish, mavjud muammolarga nostandart yondashish hamda innovatsion yechimlarni topish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, balki ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning tasavvuri, fantaziyasi va bilishga bo'lgan qiziqishi faol rivojlanadi. Shu sababli ushbu davr kreativ fikrlashni shakllantirish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashning rivojlanishi bolalarning erkin faoliyati, mustaqil qaror qabul qilishi va muammoli vaziyatlarga duch kelishi bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo'lib, ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan interaktiv o'yin texnologiyalari bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Interaktiv o'yin texnologiyalari bolalarning faol ishtiroki, o'zaro hamkorligi va muloqotiga asoslanadi. Bunday o'yinlarda tarbiyalanuvchi tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qatnashadi. Interaktiv o'yinlar orqali bolalar turli vaziyatlarni tahlil qiladi, muammolarni hal etishga harakat qiladi, o'z fikrlarini erkin ifodalaydi va yangi g'oyalarni ilgari suradi. Natijada ularning kreativ fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan "Aqliy hujum", "Ertakni davom ettir", "Rolli o'yinlar", "Muammoni hal qilamiz", "Agar men ixtirochi bo'lsam" kabi interaktiv o'yinlar bolalarning tasavvur doirasini kengaytirish, ijodiy faolligini oshirish va nostandart fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, "Ertakni davom ettir" o'yini davomida bola voqealar rivojini mustaqil ravishda yaratishga intiladi, bu esa uning fantaziyasi va ijodiy tafakkurini faollashtiradi. "Muammoni hal qilamiz" o'yinida esa bolalar muayyan vaziyatdan chiqishning turli usullarini izlaydilar, natijada ularda divergent fikrlash shakllanadi.

Shuningdek, interaktiv o'yin texnologiyalari bolalarda muloqot madaniyati, hamkorlikda ishlash, tinglash va o'z fikrini asoslab berish kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Bu esa kreativ fikrlashning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ijtimoiy kreativlikning shakllanishiga xizmat qiladi. Demak, interaktiv o'yinlar nafaqat bilimlarni o'zlashtirish vositasi, balki bolaning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaruvchi pedagogik mexanizm hamdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xususan, J. Gilford kreativlikning intellektual asoslarini tadqiq etib, divergent fikrlash nazariyasini ishlab chiqqan bo'lsa, E. Torrance kreativlikni baholash mezonlarini ishlab chiqdi hamda uning rivojlanish omillarini ilmiy asoslab berdi.

L. S. Vigotskiy va J. Piaje esa bolalar tafakkurining rivojlanishida faoliyat va ijtimoiy muhitning rolini yoritib berganlar. Ularning ilmiy qarashlari maktabgacha ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasining nazariy poydevorini tashkil etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya va AQSh kabi davlatlarning maktabgacha ta'lim dasturlarida bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Mazkur mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kreativlikni rivojlantirish bolalarning kelgusidagi akademik muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvchanligining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Finlyandiya maktabgacha ta'lim tizimida o'yin faoliyati ta'limning asosiy komponenti sifatida qaraladi. Bu mamlakatda bolalarning mustaqil izlanishi, tajriba o'tkazishi va yangi g'oyalarni ilgari surishi uchun qulay pedagogik muhit yaratiladi. Tarbiyachilar bolalarga tayyor bilimlarni berishdan ko'ra, ularni savol berishga, muammoni mustaqil tahlil qilishga va turli yechimlarni izlashga yo'naltiradilar. Natijada bolalarda kreativ fikrlash, tashabbuskorlik va innovatsion yondashuv shakllanadi.

AQShda kreativ fikrlashni rivojlantirish bo'yicha E. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan nazariy va amaliy yondashuvlar keng qo'llaniladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida "brainstorming" (aqliy hujum), "story-telling" (hikoya yaratish), konstruktorlik faoliyati va rolli o'yinlar orqali bolalarning divergent fikrlashi rivojlantiriladi. Ayniqsa, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) elementlarini o'z ichiga olgan o'yinlar bolalarning muammoli vaziyatlarga kreativ yondashishini shakllantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

Singapur tajribasida esa bolalarning ijodkorligini rivojlantirish kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim dasturlarida bolalarning kommunikativ, kognitiv va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv mashg'ulotlar ustuvor ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida loyiha asosida o'qitish, guruhlarda ishlash va muammoli vaziyatlarni modellashtirish usullaridan foydalaniladi. Bu esa bolalarda hamkorlikda ishlash va innovatsion fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning tabiiy qiziquvchanligini qo'llab-quvvatlash tamoyili ustuvor hisoblanadi. Interaktiv o'yinlar, amaliy faoliyat va ijodiy topshiriqlar orqali bolalarda kuzatuvchanlik, mustaqillik va tasavvur rivojlantiriladi. Pedagoglar bolalarning har bir g'oyasini qadrlashga intiladi, bu esa ularda erkin fikrlash va o'ziga bo'lgan ishonchning ortishiga yordam beradi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO va UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda ham XXI asr ko'nikmalari tarkibida kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda o'yin texnologiyalari va interaktiv metodlarning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Xorijiy tajribaning tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirishning muvaffaqiyati, avvalo, bolaga yo'naltirilgan pedagogik muhit, interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hamda erkin ijodiy faoliyat uchun sharoit yaratish bilan bog'liq. Shu jihatdan O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida ham ilg'or xorijiy tajribalarni milliy qadriyatlar va ta'lim an'analari bilan uyg'unlashtirgan holda joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa bolalarning kreativ salohiyatini yanada rivojlantirish, ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos, mustaqil va innovatsion fikrlovchi shaxslar sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

O'zbekistonlik pedagog olimlar R.Mavlonova, S.Nishonova, O.Musurmonova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Biroq zamonaviy maktabgacha ta'lim amaliyotida interaktiv o'yin texnologiyalarining kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini yanada chuqurroq tadqiq etish zarurati mavjud.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, qiyosiy tahlil va pedagogik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida interaktiv o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning bolalarning kreativ fikrlash ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, kreativ fikrlashning moslashuvchanlik, originallik, mustaqillik va g'oyalar soni kabi mezonlari tahlil qilindi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari interaktiv o'yin texnologiyalaridan muntazam foydalanish bolalarning fikrlash faolligi, ijodiy tashabbuskorligi va muammoli vaziyatlarga kreativ yondashuvini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o'yinlar bolalarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, ularda yangi g'oyalarni yaratish va ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishi aniqlandi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yosh davri kreativ fikrlashning shakllanishi uchun eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarning tabiiy qiziquvchanligi, tasavvuri va faol bilishga intilishi ularda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Interaktiv o'yin texnologiyalari esa mazkur imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Interaktiv o'yinlar bolalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etishi, yangi g'oyalarni ilgari surishi va o'z fikrini erkin ifoda etishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ular bolalarda hamkorlik, muloqot va ijtimoiy faollik kabi muhim kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari interaktiv o'yin texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ fikrlash darajasini oshirishga xizmat qilishini tasdiqladi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv o'yin texnologiyalarini keng joriy etish, tarbiyachilarning mazkur sohadagi metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion o'yin metodikalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajakda mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. – Toshkent, 2020.
3. Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Princeton: Personnel Press, 1974.
4. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
5. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
6. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1972.
7. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
8. Mavlonova R. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
9. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
10. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2017.
11. Musurmonova O. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
12. G'aybullayev N. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.